

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S.Yuldashev

2017 y.

“Andijon davlat universitetining eng yaxshi pedagogi” interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat (pasporti) nomlanishi:

Qisqa nomi: “Andijon davlat universiteti (Keyin ularni o’rnida -ADU)ning eng yaxshi pedagogi” tanloviga ariza berish.
Kengaytirilgan nomi: ADU tomonidan “Universitetning eng yaxshi pedagogi” tanloviga arizalarni elektron qabul qilish xizmati.

1.2. Xizmat natijasi:

Universitet professor-o’qituvchilaridan “Universitetning eng yaxshi pedagogi” tanlovining universitet bosqichi (1-*bosqich)ga elektron shakldagi ariza qabul qilish.

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 fevraldagi “OTMning eng yaxshi pedagogi tanlovi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 32-sonli qarori;

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Universitetning kamida 3 yil to’liq stavka bo’yicha faoliyat yuritayotgan, yoshi, ilmiy darajasi va unvonidan qat’iy nazar, bakalavryat yoki magistratura ta’lim dasturlari bo’yicha kurslardan birida (leksiya, seminar, amaliy yoki laboratoriya) mashg’ulotlar olib borayotgan pedagoglar;

1.6. Ariza berish muddatlari:

Belgilangan muddatlarda

1.7. Bajarish muddatlari:

5 kun

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va xajmi:

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

- Universitet joylashgan joyi, ish tartibi, murojaatlarni ko’rib chiqish shartlari va tartibi haqidagi ma’lumot;
- xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan xujjatlar ro’yxati;
- ariza blankasini to’ldirish tartibi haqida ma’lumot;
- xizmatdan foydalanish muddatlari;
- xizmatning reglamenti mavjudligi to’g’risida ma’lumot

2.2. Batafsil ma’lumot olish:

Andijon davlat universiteti rasmiy web sayti orqali

2.3. Xizmat ko’rsatish manzili haqida ma’lumot olish:

Andijon shahar, Universitet ko’chasi, 129 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari:

Xizmat ko’rsatuvchining ish vaqti dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ga qadar.

3.2. Kutish shartlari:

5 kun

4. Xizmat ko’rsatish tartibi

4.1. Zarur bo’lgan hujjatlar:

- Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion saqami (PINFL);
 - ERI (Elektron raqamli imzo)
- Quyidagi hujjatlarning elektron (skanerlangan) shaklda ilova qilinadi:

- Kafedra mudiri tomonidan (Tanlovda kafedra mudiri qatnashgan hollarda tavsiyanoma o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) tomonidan beriladi) tanlov ishtirokchisining universitetdagi pedagogik, kasbiy va jamoat ishlaridagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan ikki betdan oshmaydigan xajmdagi taqdimnomasi;
 - Tanlov ishtirokchisining pedagogik konsepsiyasi tavsifi (3-6 bet bosma matnli xajmda);
 - Tanlov ishtirokchisining ahamiyatli bo'lgan o'quv-uslubiy materiallari yoki ijodiy ishlari, ularga tashqi taqrizlar bilan birga;
 - Turli tanlovlarda fahriy yorliqlar va diplomlar bilan taqdirlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - Grandlar asosidagi faoliyatda qatnashganligi to'g'risidagi ma'lumot, unda grandning nomi, moliyalashtirish xajmi, qatnashishning shakli va darajasi ko'rsatiladi;
 - Konferensiyalardagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar, ularda maqomi va nomi, o'tkazilgan joyi, shaxsan ishtirok etish darajasi (ma'ruzachi, hammaruzachi, tashkilotchi) ko'rsatiladi;
 - Xalqaro loyihalar va dasturlardagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar (nomi, moliyalashtirish xajmi, qatnashishning shakli va darajasi ko'rsatiladi);
 - Malaka oshirish, kadrlar ni qayta tayyorlash kurslaridan, stajirovkadan o'tanlik to'g'risidagi sertifikatlar va guvohnomalar (mavzusi, soatlar hajmi va o'tkazilgan joyi) ko'rsatiladi;
 - E'lon qilingan materiallarning belbilangan tartibda universitet tomonidan tasdiqlangan ro'yxati;
 - Bevosita tanlov ishtirokchisi rahbarligida tanlovlarda, loyihalarda, olimpiadalarda ishtirok etish uchun tayyorlangan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek uning kasbiy o'sishi va yutuqlari haqidagi boshqa materiallar.
- Eslatma: Hujjatlar to'plamiga kiritilgan materiallar va axborotlarda tanlov ishtirokchisining so'nggi 3 yildagi faoliyatiga doir ma'lumotlar bo'lishi lozim.

4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy web saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Universitetning eng yaxshi pedagogi" xizmati tanlanadi;
3. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
4. Ariza shakli to'ldiriladi va xujjatlarning elektron nusxasi ilova qilinadi;
5. Ariza to'g'ri to'ldirilganligi tasdiqlanadi. "ERI bilan yuborish" funksiyasi tanlanadi va ariza yuboriladi.

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:

1. Mas'ul xodim tomonidan murojaat qiluvchiga ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi xabar yuboriladi.
2. Arizaga rad javobi berilsa, rad etish uchun asoslar murojaat qiluvchiga yuboriladi.
3. Arizachi xujjatlarning asl nusxasini elektron ariza qabul qilganidan keyin 1 (bir) kun ichida Andijon davlat universitetining qabul komissiyasiga topshirishi shart.

4.5. Rad etish sabablari:

Ma'lumotlar noto'g'ri kiritilganligi

"KIRITILDI"

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

R.Mullajonov

" 01 " 11 2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari

v.v.b. N.Mirzaalimov

" 01 " 11 2017 y.